

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60810800 – Zootsiyeneriya
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining

MALAKA TALABI

Toshkent 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “25” iyun dagi 218 -sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur malaka talabi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti” Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlari va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy avsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanishi	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	7
	Bibliografik ma’lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i	10

1. Umumiy tavsifi

“60810800 – Zootsiyeneriya” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi

Malaka talabi 60810800 - Zootsiyeneriya ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarning boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv-uslubiy boshqarma (bo’limi) boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatining tavsifi:

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

“Qishloq xo’jaligi” sohasidagi bakalavr ta’lim yo’nalishi bo’lib, qishloq xo’jalik hayvonlarini urchitish; naslchilik ishini tashkil etishda tanlash, saralash va baholashni samarali olib borish, chorva mollari uchun to’la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish va mustaxkam ozuqa bazasini yaratish; chorva mollarini saqlash va asrash, chorcachilik uchun bino va inshootlarini loyihalashtirish; go’sht, sut, tuxum, asal, baliq, jun, teri, mo’yna, pilla hamda ikkilamchi chorcachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, dastlabki ishlov berish, saqlash, tashish, qayta ishlash, standartlash va sifatini baholash; chorcachilikda qo’llaniladigan innovatsion texnologiyalarini joriy etish; chorcachilik mahsulotlaridan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish; chorva mollari kasalliklari va ularni oldini olishni bilish; chorcachilik sohasi va xo’jaliklarning iqtisodiy samaradorligini hisob-kitob qilishni amalga oshirish bilan bog’liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatning obyektlari:

Chorcachilik sohasidagi jarayonlar va tadbirlar, Respublika Qishloq xo’jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorcachilikni rivojlantirish qo’mitasi, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo’mitasi, Yaylov xo’jaligini rivojlantirish uyushmasi va uning tarkibiga kiruvchi MCHJ, klaster va xo’jaliklar, Respublika “O’zbekbaliqsanoat” uyushmasi tarkibidagi xo’jaliklar, Respublika “O’zbekiston asalarichilari” uyushmasi va hududiy bo’limlari, viloyat va tuman hududiy “Agropilla” uyushmalari;

Zooveterinariya shaxobchalari, sun’iy urug’lantirish puntklari; qoramol, qo’y, echki, ot, tuya, cho’chqa, parrandalar, asalari, baliq, pilla, quyon va mo’ynali hayvonlarni urchitishga ixtisoslashgan xo’jaliklar; chorcachilik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan xo’jaliklar va

korxonalar; omuxta-yem ishlab chiqarish zavod va korxonalari; ilmiy-tadqiqot jarayonlarida zootinjener texnolog;

60810800 - Zootinjeneriya ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavriat bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o’tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. Kasbiy vazifalar

60810800 - Zootinjeneriya ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka talabi ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:

kichik ilmiy xodim va ilmiy loyihalarda ishtirokchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarishi;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta’lim yo’nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechishi;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarda ishtirok etish hamda ilmiy, tahliliy, ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashishi;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo’yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanishi;

mavzu (topshiriq) bo’yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig’ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etishi;

chorvachilik fani sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg’or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo’yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo’lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O’zbekiston Respublikasini rivojlantirish taraqqiyot strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo’lishi;

dunyoqarash bilan bog’liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo’lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o’z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g’oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo’lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo’yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo’lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o’z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, o’z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo’nalishi bo’yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etishi;
ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilishi;
fikrlar har xil bo’lgan sharoitda yakuniy va boshqaruv qarorini qabul qilishi;
nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholashi;
bajarayotgan faoliyati bo’yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholashi;

Ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish faoliyatda:

mehnat jarayonida xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo’lishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

sog’lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to’g’risida ilmiy tasavvur hamda e’tiqodga, o’zini jismoniy chiniqtirish o’quv va ko’nikmalariga ega bo’lishi;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo’llash;

biokimyoviy, mikrobiologik va biotexnologik jarayonlar qo’llaniladigan ishlab chiqarishda, sog’liqni saqlash korxonalarida, qishloq xo’jaligida, qo’riqxonalarda, baliqchilik xo’jaliklarida va kasbiy faoliyatiga taalluqli zavod va korxonalarda belgilangan tartibda faoliyat ko’rsatish;

ixtisoslikka mos mavzu bo’yicha turli xizmatlarni ko’rsatish qobiliyatiga ega bo’lishi lozim.

Axborot-tahliliy faoliyatda:

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to’g’risidagi ma’lumotlarni to’plash, qayta ishlash va tahlil qilishi;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to’plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarishi;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko’rsatkichlari bo’yicha ma’lumotlar bazasini yuritishi;

loyihalar samaradorligini baholashi;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo’yicha hisobot tayyorlashi;

Tadbirkorlik faoliyatida:

yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. Kasbiy kompetensiyalarga qo’yiladigan talablar:

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko’rib chiqish, o’z-o’zini rivojlantirish, malaka oshirish va kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o’zgartirishga qodir bo’lishi;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo’llay bilishi, axborotlarni yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog’lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to’g’risida tasavvurga ega bo’lish.

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lishi;

tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo’llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko’nikmalariga ega bo’lishi;

muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilishi;

koorporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma’lumotlar bazasini yuritishni bilishi;

chorvachilik sohasi tarmoqlarida strategik va tezkor boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilishi;

qoramol, qo’y, echki, ot, tuya, cho’chqa, parrandalar, asalari, baliq, pilla, quyon va mo’ynali hayvonlarni urchitish, saqlash, oziqlantirish, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, dastlabki va qayta ishlash hamda sifatini baholash ko’nikmalariga ega bo’lishi;

oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan zootexnikaviy tadbirlarni amalga oshirish ko’nikmasiga ega bo’lishi;

chorva mollari va parrandalar orasida uchraydigan turli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini tashkil etishi;

yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo’yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo’yiladigan talablar:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

O’quv tanishuv amaliyoti;

Tanishuv amaliyoti;

Ishlab chiqarish amaliyoti;

Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		MAJBURIY FANLAR	4860	162	
1.01	O‘RT1106	*O‘zbek(Rus) tili	180	6	1
1.02	JTS1104	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	1
1.03	EAMM1104	Ekologiya va atrof-muhit muxofazasi	120	4	1
1.04	SAKT1104	Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari	120	4	1
1.05	XT1104	Xorijiy til	120	4	1
1.06	MK1104	Mutaxassislikka kirish	120	4	1
1.07	O‘EYT1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	AFK1204	Analitik va fizkolloid kimyo	120	4	2
1.09	BR1204	Biofizika va radiobiologiya	120	4	2
1.10	F1304	Falsafa	120	4	3
1.11	D1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.12	GB1108	Genetika va biotexnologiya	240	8	1-2
1.13	HM1206	Hayvonlar morfologiyasi	180	6	2
1.14	CHMA1206	Chorvachilikni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish	180	6	2
1.15	M1304	Mikrobiologiya	120	4	3
1.16	A1306	Asalarichilik	180	6	3
1.17	HB1306	Hayvonlar biokimyosi	180	6	3
1.18	QXHU1308	Qishloq xo‘jalik hayvonlarini urchitish	240	8	3-4
1.19	QM1406	Quyunchilik va mo‘ynachilik	120	4	4
1.20	HF1406	Hayvonlar fiziologiyasi	180	6	4
1.21	ZCHBL1506	Zoogigiyena va chorvachilik binolarini loyihalash	180	6	5
1.22	VA1506	Veterinariya asoslari	180	6	5
1.23	AHSU1506	Akusherlik va hayvonlarni sun‘iy urug‘lantirish	180	4	5
1.24	HO1606	Hayvonlarni oziqlantirish	240	8	5-6
1.25	QE1606	Qo‘ychilik va echkichilik	180	6	6
1.26	B1706	Baliqchilik	180	6	7
1.27	P1706	Parrandachilik	180	6	7
1.28	Q1706	Qoramolchilik	180	6	7
1.29	YT1706	Yilqichilik va tuyachilik	180	6	7
1.30	CHMDQITS 1706	Chorvachilik mahsulotlarini dastlabki va qayta ishlash texnologiyasi va standartlashtirish	180	6	7
2.00		TANLOV FANLARI	1080	36	
2.00		Tanlov fanlar	1080	36	2,4,5,6,7
Kvalifikatsiyasi		Zoomuhandis texnolog			
		Jami	5940	198	
		Malakaviy amaliyot	1260	42	2,4,6,8
		Davlat attestatsiyasi			8
		Jami	1260	42	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch soʻzlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat turi, kredit, modul, bakalavriat, o’quv reja, fan dasturi, o’quv jarayoni, malakaviy amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, ichki nazorat, yakuniy baholash, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta’lim, o’quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, ta’lim sifati nazorati, profil, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, chorvachilik ta’lim sohasi, Qishloq xo’jaligi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo’mitasi, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo’limlari, chorvachilik, go’sht, sut, zotlar, naslchilik ishi, oziqlantirish, saqlash.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILDI:

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Rektor  X.B. Yunusov

2024-yil " 8 " 06

M.O'.

Toshkent davlat agrar universiteti

I-prorektor  S.Y. Islomov

2024-yil " 8 " 06

M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev

2024-yil " 20 " 06

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi

Bas  B.T. Norqobilov

2024-yil " 21 " 06

M.O'.

Qorako'lhilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor  E.S. Shaptakov

2024-yil " 10 " 06

M.O'.

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor  A.A. Nurmatov

2024-yil " 10 " 06

M.O'.

"JIZZAX ORGANIC" MCHJ XK

direktori _____ A.A. Kaziyeu

2024-yil " _____ " _____

M.O'.

"SIYOB SHAVKAT ORZU" klasteri

direktori  B.M. Marupov

2024-yil " 11 " 06

M.O'.